Sifatli ta’lim – yorqin kelajak


TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ILMIY XABARNOMA

ISSN: 3060-4761

ILMIY JURNAL

№ 2 (06) IYUN 2026



SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK

ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARNOMASI

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE
PEDAGOGICAL INSTITUTE

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

TERDPI ILMIY XABARNOMASI

2026/ № 2



O'zR OAK ning 2025-yil 24-sentabrdagi
375/5-sonli qarori bilan milliy ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan

Termiz – 2026

ISSN: 3060-4761

Muassis:
Termiz davlat pedagogika instituti

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
Jurnal bir yilda bosma va elektron (o'zbek, rus, ingliz tillarida) shaklda chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 6-iyundagi № 303723-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan manba, ko'chirma, mazmun va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgar. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 26,25
Ofset bosma. Ofset qog'ozi.
Adadi: 100 nusxa
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma: 174
Tahririyat manzili: Termiz tumani "Yangiobod" MFY, At-Termiziy ko'chasi 1-A uy.
"TerDU bosmaxonasi"da chop etildi.
Bosmaxona manzili: Termiz shahri, A.Navoiy ko'chasi, 42 uy.

BOSH MUHARRIR:
Xasanov Azizbek, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Kuldasheva Shaxnoza, kimyo fanlari doktori (DSc), professor

TEXNIK MUHARRIR:
Qurbanov Abdimalik, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MAS'UL KOTIB:
To'rayev Ro'ziboy, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIR HAY'AT A'ZOLARI:
Bernd Müller-Jacquier,f.f.d, professor (Germaniya)
Ponomaryova Lyudmila, p.f.d, professor (Rossiya)
Gerasyov Aleksandr, p.f.d, professor (Rossiya)
Buligina Yelena, f..f.d, professor (Rossiya)
Eshmetov Izzat, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Abdikamalova Aziza, k.f.d, professor (O'zbekiston)
Salixanova Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Jumaeva Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Sagdullayeva Dilafruz, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Turamuratov Ulug'bek, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Norbo'tayev Xo'shboq, p.f.d,(DSc) professor (O'zbekiston)
To'rayev Rasul, f.m.f.n, professor (O'zbekiston)
Shamuratova Nagima, q.x.f.d. (DSc), professor (O'zbekiston)
Saidov Chorixon, f.m.f.d, professor (O'zbekiston)
Bozorov Lutfulla, k.f.d., (DSc) (O'zbekiston)
Mahmudov Yusup, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Xudoyqulov Xol, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Alimov Parda, f.f.d, professor (O'zbekiston)
Xoliqnazarov Begali, b.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Qodirov Baxtiyor, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Tojiyev Panji, t.f.d,(DSc), dotsent (O'zbekiston)
Qosimov Shavkat, PhD, professor (O'zbekiston)
Saidaxmatov Sharifbek, t.f.f.d., PhD,dotsent (O'zbekiston)
Xudoyberdiyev Shuxrat, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Umarov Aziz, PhD (O'zbekiston)
Abduraxmonov Eldor, k.f.d, ,(DSc), professor (O'zbekiston)
Shabbazova Dilfuza, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nuritdinova Xurshida, PhD (O'zbekiston)
Quvvatova Mohira, PhD (O'zbekiston)
Mardonova Lobar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nurmatov Norqobil, q.x.f.d, (DSc), professor (O'zbekiston)
Ismailov Botir, PhD, (O'zbekiston)
Sattorov Sardor, PhD (O'zbekiston)
Allamuradov Anvar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Kabilova Sayyora, PhD (O'zbekiston)
Ismailov Murodulla, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Eshmuradov Olmosbek, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Isayev Oybek, Phd (O'zbekiston)
Norliyev Rustam, f.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Berdiyeva Muhabbat, Phd, professor (O'zbekiston)
Shirnazarova Zamira, Phd,dotsent (O'zbekiston)
Narbasheva Mexri, p.f.n, professor (O'zbekiston)
Kuzimurotova Dinara, Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri (O'zbekiston)

ISSN: 3060-4761

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Хасанов Азизбек, доктор педагогических наук (DSc), профессор.

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА:
Кулдашева Шахноза, доктор химических наук (DSc), профессор

ТЕХНИЧЕСКИЙ РЕДАКТОР:
Курбанов Абдималик, доктор философии по техническим наукам (PhD)

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:
Тураев Рузибой, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:
Бернд Мюллер-Жакье, д.ф.н., профессор (Германия)
Пономарева Людмила, д.п.н., профессор (Россия)
Герасёв Александр, д.п.н., профессор (Россия)
Булыгина Елена, д.ф.н., профессор (Россия)
Эшметов Иззат, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Абдикамалова Азиза, д.к.н., профессор (Узбекистан)
Салиханова Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Джумаева Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Сагдуллаева Дилафруз, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Турамурадов Улугбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Норбутаев Хушбок, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Тураев Расул, к.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Шамуратова Нагима, д.с.н, профессор (Узбекистан)
Саидов Чорихон, д.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Бозоров Лутфулла, д.т.н. (Узбекистан)
Махмудов Юсуп, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Худойкулов Хол, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Алимов Парда, ф.ф.н, профессор (Узбекистан)
Халикназаров Бегали, к.б.н, доцент (Узбекистан)
Кодиров Бахтиёр, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Таджиев Панджи, д.т.н., доцент (Узбекистан)
Касимов Шавкат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Саидахматов Шарифбек, д.ф.и.н, доцент (Узбекистан)
Худойбердиев Шухрат, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Умаров Азиз, д.ф.п.н, (Узбекистан)
Абдурахманов Эльдор, д.х.н., профессор (Узбекистан)
Шаббазова Дилфуза, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Нуритдинова Хуршида, д.ф.п.н (Узбекистан)
Кувватова Махира, д.ф.п.н (Узбекистан)
Мардонова Лобар, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нурматов Норкабил, д.с.н., профессор (Узбекистан)
Исмаилов Ботир, д.ф.п.н (Узбекистан)
Сатторов Сардор, д.ф.п.н (Узбекистан)
Алламурадов Анвар, д.ф.п.н. доцент (Узбекистан)
Кабилова Сайёра, д.ф.ф.н, (Узбекистан)
Исмаилов Муродулла, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Эшмурадов Олмосбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Исаев Ойбек, д.ф.и.н (Узбекистан)
Норлиев Рустам, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бердиева Мухаббат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Ширназарова Замира, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нарбашева Мехри, к.п.н. профессор (Узбекистан)
Кузимуротова Динара, редактор редакционно-издательского отдела, (Узбекистан).

Основатель:
Термезский государственный педагогический институт

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

Журнал издается в печатном и электронном виде (на узбекском, русском, английском языках) в течение одного года.

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан свидетельством № 303723 от 6 июня 2024 года.

Авторы несут ответственность за достоверность источников, выдержек, содержания и информации, используемых в текстах. При копировании из журнала необходимо указывать источник.

Разрешение получено: 12.06.2026.
Размер бумаги: 70x85.
Печатная форма: 26,25.
Офсетная печать.
Офсетная бумага.
Количество: 100 экз.
Цена указана по договорённой цене.
Заказ: 174
Адрес редакции: Термезский район, «Янгиабад» МФМ, улица Ат-Термизи, дом 1-А.
Отпечатано в типографии «ТерГУ».
Адрес типографии: город Термез,улица А.Навоий, дом 42.

ISSN: 3060-4761

Founder:
Termiz State Pedagogical Institute

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL

The magazine is published in printed and electronic form (in Uzbek, Russian, English) in one year.

Registered by the Information and Mass Communications Agency under the Presidential Administration of the Republic of Uzbekistan with certificate No. 303723 dated June 6, 2024.

The authors are responsible for the accuracy of the sources, excerpts, content and information used in the texts. When copying from a journal, the source must be noted.

Permission to print: 12.03.2026
Paper size: 70x85
Printing plate: 26.25
Offset printing.
Offset paper.
Quantity: 100 copies
Price at the agreed price.
Order: 174
Editorial address: Termez district, «Yangiabad» MCK, At-Termiziy street, 1-A.
Printed at the "TerSU printing house". Address: Termez city, A.Navoiy street, 42.

THE EDITOR-IN-CHIEF:
Xasanov Azizbek, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Kuldasheva Shakhnoza, Doctor of Chemical Sciences (DSc), Professor

TECHNICAL EDITOR:
Qurbanov Abdimalik, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences

RESPONSIBLE SECRETARY:
Turaev Ruziboy, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:
Bernd Müller-Jacquier, Doctor of Philological Sciences, Professor (Germany)
Ponomaryova Lyudmila, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Gerasyov Aleksandr, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Buligina Yelena, Doctor of Philological Sciences, Professor (Russia)
Eshmetov Izzat, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Abdikamalova Aziza, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Salikhanova Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Jumaeva Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Sagdullayeva Dilafruz, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
To'ramuratov Ulug'bek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Norbo'tayev Xo'shboq, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
To'rayev Rasul, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Shamuratova Nagima, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
Saidov Chorikhon, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Bozorov Lutfulla, Doctor of Technical Sciences (DSc), (Uzbekistan)
Mahmudov Yusup, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Khudoyqulov Khol, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Parda Alimov, Candidate of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Xoliqnazarov Begali, Candidate of Biological Sciences, Associate Professor, (Uzbekistan)
Qodirov Baxtiyor, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Tojiyev Panji, Doctor of Technical Sciences (DSc), Associate Professor (Uzbekistan)
Qosimov Shavkat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Saidakhmatov Sharifbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Khudoyberdiyev Shuxrat, PhD (Uzbekistan)
Umarov Aziz, PhD (Uzbekistan)
Abduraxmonov Eldor, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Shabbazova Dilfuza, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nuritdinova Khurshida, PhD (Uzbekistan)
Quvvatova Mohira, PhD (Uzbekistan)
Mardonova Lobar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nurmatov Norqobil, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Profess. (Uzbekistan)
Ismailov Botir, PhD (Uzbekistan)
Sattorov Sardor, PhD (Uzbekistan)
Allamuradov Anvar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Kabilova Sayyora, PhD, (Uzbekistan)
Ismailov Murodulla, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshmuradov Olmosbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Isayev Oybek, PhD (Uzbekistan)
Norliyev Rustam, Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Berdiyeva Muhabbat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Shirnazarova Zamira, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Narbasheva Mexri, Candidate of Psychological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Kuzimurotova Dinara, Editor, Editorial-Publishing Department (Uzbekistan)

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UKD: 78.07:37.015.3.
ORCID: 0009-0006-3130-7920.

ABDUXAIROVA OISHA SHODIQUL QIZI
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti
oishashodievna@gmail.com
Ilmiy rahbar:
ZAKIROVA ZILOLA AZAMOVNA
v.b.dotsent, tarix fanlari bo'yicha falsafa dortori (PhD).
Termiz davlat pedagogika instituti.
zakirovazilola@gmail.com

ALFA AVLOD BOLALARIDA RITM, TEMBR VA OHANGNI IDROK ETISHNING YOSHGA XOS PSIXOLOGIK JIHATLARI

ANNOTATSIYA. 1. Tadqiqot maqsadi: 2010-yil va undan keyin tug'ilgan alfa avlodi bolalarida ritm, tembr va ohangni idrok etishning yoshga xos psixologik xususiyatlarini aniqlash, tahlil qilish va ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqot metodlari: tadqiqot davomida nazariy, empirik hamda statistik metodlar majmuasi qo'llanilgan. Nazariy jihatdan musiqiy psixologiya, rivojlanish psixologiyasi va musiqiy pedagogikaga oid adabiyotlar tizimli ravishda o'rganilgan. Empirik jihatdan 5 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalar ishtirokida maxsus diagnostik testlar o'tkazilgan, ularning musiqiy faoliyati psixologik-pedagogik kuzatuvdan o'tkazilgan. Statistik jihatdan to'plangan empirik ma'lumotlar maxsus dastur yordamida qayta ishlangan va tahlil qilingan. Qo'llanilgan diagnostik testlar bolalarning ritmik naqshlarni takrorlash, turli elektron va akustik cholg'u asboblari tembrlarini farqlash hamda melodik chiziqni ajratish qobiliyatlarini baholashga yo'naltirilgan.

Tadqiqot natijalari: o'tkazilgan empirik tadqiqot natijalari muhim ilmiy ma'lumotlarni berdi. Ritmik idrok sohasida oddiy ritmik tuzilmalarni takrorlashda yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan bo'lsa, murakkab ritmik strukturalarni idrok etishda ancha past natijalar kuzatildi. Tembrli eshitish qobiliyatini tekshirish shuni ko'rsatdiki, elektron musiqa asboblari tembrlarini farqlash darajasi akustik asboblar tembrlarini farqlashdan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Melodik idrok etishda intervallarni farqlash eng past ko'rsatkichni tashkil etdi. Shuningdek, alfa avlodi bolalarida diqqatni jamlash bilan bog'liq qiyinchiliklar, klipli tafakkurga moyillik va bir vaqtning o'zida bir nechta faoliyat bilan shug'ullanish odati mavjudligi aniqlangan.

Xulosalar: tadqiqot alfa avlodi bolalari musiqiy idrokining raqamli muhit ta'sirida transformatsiyaga uchraganligini tasdiqlaydi. Aniqlangan psixologik xususiyatlar asosida yosh davrlariga moslashtirilgan musiqiy rivojlantiruvchi metodikalar bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

KALIT SO'ZLAR: *raqamli muhit, psixologiya, diagnostika, transformatsiya, yosh davrlari, kognitivlik, multitasking, klipli tafakkur.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВОСПРИЯТИЯ РИТМА, ТЕМБРА И МЕЛОДИИ ДЕТЬМИ ПОКОЛЕНИЯ АЛЬФА В ВОЗРАСТНОМ КОНТЕКСТЕ

АННОТАЦИЯ. Основная цель данного исследования заключается в выявлении, анализе и научном обосновании возрастных психологических особенностей восприятия ритма, тембра и мелодии у детей поколения альфа, родившихся в 2010 году и позднее. ходе исследования был применен комплекс теоретических, эмпирических и статистических методов. Теоретический аспект включал систематический анализ литературы по музыкальной психологии, возрастной психологии и музыкальной педагогике. Эмпирическая часть исследования проводилась с участием детей в возрасте от 5 до 10 лет, в ходе которой были использованы специальные диагностические тесты, а также психолого-педагогическое наблюдение за их музыкальной деятельностью. Статистическая обработка полученных эмпирических данных осуществлялась с помощью специального программного обеспечения. Применяемые диагностические тесты были направлены на оценку способностей детей к повторению ритмических рисунков, различению тембров различных электронных и акустических музыкальных инструментов, а также выделению мелодической линии. результаты эмпирического исследования предоставили важные научные данные. В области ритмического восприятия были зафиксированы высокие показатели при воспроизведении простых ритмических структур, тогда как восприятие сложных ритмических образований показало значительно более низкие результаты. Исследование тембрового слуха выявило существенное превосходство в различении тембров электронных музыкальных инструментов по сравнению с акустическими. Наиболее низкие показатели были отмечены в различении интервалов при мелодическом восприятии. Кроме того, у детей поколения альфа были выявлены трудности, связанные с концентрацией внимания, склонность к клиповому мышлению и привычка к одновременному выполнению нескольких видов деятельности. проведенное исследование подтверждает, что музыкальное восприятие детей поколения Альфа претерпело значительную трансформацию под влиянием цифровой среды. На основе выявленных психологических особенностей были разработаны научно обоснованные практические рекомендации по музыкально-развивающим методикам, адаптированным к различным возрастным периодам.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Цифровая среда, психология, диагностика, трансформация, возрастные периоды, когнитивность, мультизадачность, клиповое мышление*

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

AGE-SPECIFIC PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF RHYTHM, TIMBRE AND MELODY PERCEPTION IN ALPHA GENERATION CHILDREN

ABSTRACT: The main objective of this study is to identify, analyze and scientifically substantiate the age-specific psychological characteristics of rhythm, timbre and melody perception in Alpha generation children born in 2010 and later. a complex of theoretical, empirical and statistical methods was applied during the research. The theoretical aspect included a systematic analysis of literature on music psychology, developmental psychology and music pedagogy. The empirical part of the study was conducted with the participation of children aged 5 to 10 years, using special diagnostic tests as well as psychological and pedagogical observation of their musical activities. Statistical processing of the obtained empirical data was carried out using specialized software. The diagnostic tests employed were aimed at assessing children's abilities to repeat rhythmic patterns, distinguish timbres of various electronic and acoustic musical instruments, and identify melodic lines. the results of the empirical research provided important scientific data. In the area of rhythmic perception, high indicators were recorded for the reproduction of simple rhythmic structures, while the perception of complex rhythmic formations showed significantly lower results. The study of timbre hearing revealed a significant superiority in distinguishing timbres of electronic musical instruments compared to acoustic ones. The lowest indicators were noted in interval discrimination during melodic perception. Additionally, children of the Alpha generation were found to have difficulties related to attention concentration, a tendency toward clip thinking, and a habit of multitasking. the conducted research confirms that the musical perception of Alpha generation children has undergone significant transformation under the influence of the digital environment. Based on the identified psychological characteristics, scientifically grounded practical recommendations have been developed for music development methodologies adapted to different age periods.

KEYWORDS: *digital environment, psychology, diagnostics, transformation, age periods, cognition, multitasking, clip thinking*

KIRISH. Zamonaviy jamiyatda kechayotgan chuqur raqamli transformatsiyalar natijasida 2010-yil va undan keyin dunyoga kelgan alfa avlodi bolalari o'zlaridan oldingi avlodlardan tubdan farq qiluvchi psixologik va kognitiv xususiyatlarga ega bo'lib voyaga yetmoqda [3, b.112]. Ularning hayoti ilk yoshdan boshlab smartfonlar, planshetlar va sun'iy intellekt texnologiyalari bilan chambarchas bog'liq. Bu holat nafaqat ularning dunyoqarashi va bilim olish usullariga, balki san'at asarlarini, xususan musiqani idrok etish jarayonlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Musiqiy idrok murakkab psixologik jarayon bo'lib, uning asosiy komponentlari ritm, tembr va ohang – insonning musiqa asarini butun holda qabul qilishi, anglashi va his qilishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu komponentlarning har biri o'ziga xos psixofiziologik mexanizmlarga asoslanadi va yosh davrlariga qarab turlicha rivojlanadi. Alfa avlodida esa bu rivojlanish jarayoni raqamli muhit tomonidan kuchli modifikatsiyaga uchramoqda [2, b.78].

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi kunda maktabgacha va maktab ta'limi tizimida qo'llanilayotgan musiqiy rivojlantiruvchi metodlarning aksariyati o'tgan asrda ishlab chiqilgan bo'lib, ular alfa avlodining psixologik va fiziologik xususiyatlarini to'liq hisobga olmaydi. Xususan, ularning diqqatni jamlashdagi qiyinchiliklari, klipli tafakkurga moyilligi va multitasking odati musiqiy idrok jarayoniga yangicha yondashuvni talab qiladi.

Alfa avlodi muammosi so'nggi yillarda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lmoqda. Zamonaviy ilmiy nashrlarda alfa avlod tarbiyasiga psixologik yondashuv, gamifikatsiya va raqamli savodxonlikni oshirish masalalari yoritilgan. Biroq, aynan alfa avlodi bolalarida ritm, tembr va ohangni idrok etishning yoshga xos psixologik jihatlari maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan [6, b.198].

Tadqiqotning maqsadi – alfa avlodi bolalarida ritm, tembr va ohangni idrok etishning yoshga xos psixologik xususiyatlarini aniqlash va olingan natijalar asosida musiqiy rivojlantiruvchi metodikalarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOTNING VAZIFALARI:

–alfa avlodining umumiy psixologik va kognitiv xususiyatlarini tahlil qilish;

–5-10 yoshli bolalarda ritmni idrok etish dinamikasini o'rganish;

–tembrli eshitish qobiliyatining shakllanish bosqichlarini aniqlash;

–ohangni idrok etishdagi transformatsion jarayonlarni tahlil qilish;

–yosh davrlariga mos musiqiy rivojlantiruvchi metodikalar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Alfa avlodi va musiqiy idrok masalasiga oid ilmiy manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur yo'nalish so'nggi yillarda tadqiqotchilarning e'tiborini tortmoqda. Jumladan, G.Nurmatova ilmiy izlanishlarida alfa avlodining rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar, ularning diqqatni jamlashdagi muammolari tahlil etilgan. M.MakKrindl esa alfa avlodining asosiy xususiyatlarini tavsiflab, ularning raqamli texnologiyalar bilan o'zaro aloqasini yoritgan [7, b.89].

Musiqiy psixologiya sohasida M.Maxmudova tomonidan yozilgan «Musiqiy psixologiya asoslari» darsligida musiqani idrok etishning nazariy asoslari, ritm, tembr va ohangni qabul qilishning psixofiziologik mexanizmlari batafsil bayon qilingan. G.Qodirovaning tadqiqotlari esa maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan.

Xorijiy adabiyotlarda P.S.Kampbell bolalar musiqiy rivojlanishining asosiy bosqichlarini yoritgan bo'lsa, S.Tursunov o'zbek bolalar folklori va musiqiy tarbiya masalalarini tahlil qilgan [9, b.123].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, alfa avlodi bolalarida ritm, tembr va ohangni idrok etishning yoshga xos psixologik jihatlari maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Mavjud tadqiqotlar asosan umumiy psixologik xususiyatlar yoki musiqiy rivojlanishning alohida jihatlariga bag'ishlangan [2, b.134].

TADQIQOT METODLARI. Tadqiqotda nazariy, empirik

va statistik metodlar majmuasi qo'llanilgan. Nazariy metod sifatida adabiyotlarni tizimli tahlil qilish usuli tanlangan. Empirik metodlar sifatida diagnostik testlar, psixologik-pedagogik kuzatuv, individual va guruhli suhbatlar amalga oshirilgan. Statistik metod sifatida to'plangan ma'lumotlarni maxsus dastur yordamida qayta ishlash va tahlil qilish usuli qo'llanilgan.

Diagnostik testlar ritmik naqshlarni takrorlash, turli cholg'u asboblari tembrlarini farqlash hamda melodik chiziqni ajratish qobiliyatlarini baholashga yo'naltirilgan. Ritmik testlar oddiy va murakkab ritmik naqshlarni takrorlash vazifalaridan iborat. Tembrli testlar turli elektron va akustik asboblar ovozlarini farqlashni o'z ichiga oladi. Melodik testlar melodik harakat yo'nalishini aniqlash, intervallarni va ladni farqlash vazifalaridan tashkil topgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR.

Tadqiqot natijalari.

O'tkazilgan empirik tadqiqot natijasida alfa avlodi bolalarining ritm, tembr va ohangni idrok etish xususiyatlariga oid muhim ma'lumotlar olindi.

Ritmik idrok sohasida oddiy ritmik tuzilmalarni takrorlashda barcha yosh guruhlarida yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan. Yosh o'tishi bilan bu ko'rsatkich barqarorlashgan. Murakkab ritmik strukturalarni idrok etishda esa 5-6 yoshli bolalarda past, 7-8 va 9-10 yoshli bolalarda o'rtacha natijalar kuzatilgan. Bu alfa avlodi bolalarining diqqatni jamlashdagi qiyinchiliklari bilan bog'liq bo'lishi mumkin [3, b.156].

Tembrli eshitish qobiliyatini tekshirish shuni ko'rsatdiki, elektron musiqa asboblari tembrlarini farqlash darajasi barcha yosh guruhlarida yuqori bo'lib, akustik asboblar tembrlarini farqlashdan sezilarli darajada ustun. 5-6 yoshli bolalarning aksariyati elektron asboblar ovozlarini osongina farqlay olgan, akustik asboblarni farqlash esa past ko'rsatkichlarni tashkil etgan. Bu farq yosh o'tishi bilan kamayib borgan, ammo 9-10 yoshda ham elektron asboblar tembrlarini farqlash akustik asboblarga nisbatan yuqori bo'lib qolgan. Bu holat bolalarning kundalik raqamli muhitda asosan elektron musiqaga duch kelishi bilan izohlanadi.

Melodik idrok etishda intervallarni farqlash eng past ko'rsatkichni tashkil etgan. 5-6 yoshli bolalarda interval farqlash past bo'lgan, 7-8 va 9-10 yoshga kelib bu ko'rsatkich o'rtacha darajaga ko'tarilgan. Melodik harakat yo'nalishini aniqlash esa nisbatan yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etgan.

Shuningdek, Alfa avlodi bolalarida diqqatni jamlash bilan bog'liq qiyinchiliklar, klipli tafakkurga moyillik va bir vaqtning o'zida bir nechta faoliyat bilan shug'ullanish odati mavjudligi aniqlangan. Bolalarning aksariyati musiqa tinglash jarayonida parallel ravishda boshqa faoliyatlar bilan shug'ullanishi kuzatilgan.

1.NATIJALARNI MATNLI JADVAL ORQALI TAQDIM ETISH.

Yosh guruhi	Ritmik idrok	Tembrli eshitish	Melodik idrok
5-6 yosh	Oddiy ritmlar yuqori, murakkab ritmlar past	Elektron asboblar yuqori, akustik asboblar past	Melodik harakat yuqori, intervallar past
7-8 yosh	Oddiy ritmlar yuqori, murakkab ritmlar o'rtacha	Elektron asboblar yuqori, akustik asboblar o'rtacha	Melodik harakat yuqori, intervallar o'rtacha
9-10 yosh	Oddiy ritmlar yuqori, murakkab ritmlar o'rtacha	Elektron asboblar yuqori, akustik asboblar yuqori	Melodik harakat yuqori, intervallar o'rtacha

2.Muammolar muhokamasi.

Tadqiqot natijalari alfa avlodi bolalarida musiqiy idrok jarayoni sezilarli darajada o'zgarishga uchraganligini ko'rsatdi. Ritmik idrokdagi farqlar, ya'ni oddiy ritmlarni yuqori, murakkab ritmlarni past darajada qabul qilish, ushbu avlodning diqqatni jamlashdagi muammolari va klipli tafakkurga moyilligi bilan izohlanadi.

Tembrli eshitish sohasida elektron asboblar tembrlarini farqlash akustik asboblarga nisbatan ancha yuqori ekanligi aniqlandi. Bu bolalarning «tembrli lug'ati» raqamli muhit ta'sirida shakllangani bilan bog'liq [2, b.134]. Bu holat musiqiy pedagogikada muhim savol tug'diradi: an'anaviy akustik asboblar bilan tanishtirishni davom ettirish yoki elektron tembrlarga asoslangan metodikalarni ishlab chiqish?

Melodik idrokdagi qiyinchiliklar, ayniqsa intervallarni farqlashning pastligi, Alfa avlodida nozik musiqiy eshitishning yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatadi. Bu ularning musiqiy iste'moli qisqa va takrorlanuvchi melodik naqshlarga asoslangani bilan bog'liq [6, b.178].

Aniqlangan psixologik xususiyatlar – diqqat beqarorligi, klipli tafakkur ustunligi, elektron tembrlarga yuqori sezgirlik – musiqiy pedagogikada yangi yondashuvlarni talab qiladi. An'anaviy metodlarni moslashtirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va o'yinlashtirish elementlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi [4, b.123].

XULOSALAR. Tadqiqot natijalari Alfa avlodi bolalarida musiqiy idrok jarayoni raqamli muhit omillari ta'sirida sezilarli darajada o'zgarganligini isbotladi.

Quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

–soddalashtirilgan ritmik tuzilmalarni qabul qilishda yuqori natija kuzatiladi, ammo murakkab ritmik shakllarni anglashda past ko'rsatkichlar qayd etilgan;

–elektron cholg'u asboblari tembrlarini ajratish qobiliyati akustik asboblarga nisbatan ancha rivojlangan;

–musiqiy intervallarni farqlash eng zaif jihat bo'lib chiqdi;

–diqqatni bir nuqtada to‘plashdagi muammolar, klipli fikrlash va parallel faoliyat yuritish odati mavjudligi aniqlangan.

Belgilangan psixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda, turli yosh bosqichlari uchun moslashtirilgan musiqiy tarbiya metodikalari yuzasidan amaliy takliflar ishlab chiqildi. Jumladan, ritm tuyg’usini o‘stirishda interaktiv o‘yinlardan foydalanish, tembrli eshitishni takomillashtirishda elektron va an’anaviy asboblar tovushlarini qiyoslash, ohangni idrok etishni shakllantirishda esa oddiy melodik parchalar bilan ishlash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Karimova D. Raqamli avlod psixologiyasi. – T.: Nodira, 2024. – 210 b. (Psychology of the digital generation.)

2.Maxmudova M. Musiqiy psixologiya asoslari. – T.: Fan, 2022. – 184 b. (Fundamentals of music psychology.)

3.Nurmatova G. Alfa avlodning rivojlanish muammolari. Yechimlar va tavsiyalar // Science and Education. – 2024. – №3.. 102-108 b. (Problems of development of the Alpha generation. Solutions and recommendations.)

4.Sharipova D. Zamonaviy ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Innovatsiya, 2023. – 198 b. (Innovative technologies in modern education.)

5.Usmonova N. Raqamli avlod tarbiyasi: psixologik yondashuv. – T.: Yangi asr avlodi, 2023. – 156 b. (Education of the digital generation: psychological approach)

6.Qodirova G. Musiqiy psixologiya va pedagogika. – T.: O‘zbekiston, 2021. – 240 b. (Music psychology and pedagogy)

7.McCrindle M. Generation Alpha: Understanding our children and grandchildren. – Sydney: Hachette, 2021. – 288 p. (Alfa avlodi: farzandlarimiz va nevaralarimizni tushunish.)

8.Qodirova G. Maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish. – T.: O‘qituvchi, 2023. – 156 b. (Development of musical abilities in preschool children.)

9.Campbell P.S. Music in childhood: from preschool through the elementary grades. – Boston: Cengage Learning, 2019. – 480 p. (Bolalikda musiqa: maktabgacha yoshdan boshlang‘ich sinflargacha.)

10. Tursunov S. O‘zbek bolalar folklori va musiqiy tarbiya. – T.: Musiqa, 2020. – 142 b. (Uzbek children’s folklore and music education.)